

# **O‘YIN TURLARI: IJODIY O‘YINLAR, QOIDALI O‘YINLAR, MILLIY O‘YINLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Atabekov Fozil O‘razali o‘g‘li**

**Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti**

**Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsent vazifasi bajaruvchisi, To‘raqulov**

**Sirojiddin Zorijon o‘g‘li**

**Otaqo‘ziyev Asadbek Mirqo‘zi o‘g‘li**

**Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda jismoniy tarbiya va sport**

***Rezyume:** Maqolada maktabgacha ta‘lim tizimiga yangicha yondashuv asosida noan‘anaviy darslarni tashkil etishning mazmun-mohiyati, bog‘cha yoshidagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati bayon qilingan. Dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish, uning bolalar tomonidan mavzularni samarali o‘zlashtirilishiga ta‘siri asoslangan.*

***Tayanch so‘zlar:** bolalar, didaktik o‘yinlar, noan‘anaviy, interfaol o‘yinlar, mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, faollik.*

Daraxtning ildizi qanchalik chuqur va tarmoqlangan bo‘lsa, u shunchalik mustahkam, uning umri shunchalik davomli, hosili esa mo‘l-ko‘l bo‘ladi. Insoniyat ko‘p ming yillik taraqqiyoti davomida jamiyatni rivojlantirishning ta‘lim, ilm va hunardan samaraliroq vositasini kashf qila olgan emas. Shu sababli ham ta‘lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omildir [1]. Shu sababdan bugungi kunda tarbiyani maktabgacha ta‘lim tizimidan shakillantirib borish lozim.

Shu ma‘noda mamlakatimiz bog‘chalari bolalariga kompyuter texnologiyalari asosida o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil qilish yanada samarali natijalarga erishishga ko‘mak bo‘ladi. Bunda biz, milliy ertaklarimiz qahramonlaridan (Masalan: Nasriddin Afandi, Zumrad, Qimmat va b.) foydalanib,

ingliz tilida zamonaviy didaktik o‘yin dasturlarini tashkillashtirish bolalarning so‘z boyligini oshirishda yordam beradi.

Ayrim tadqiqotchilar o‘yinlarni tashkil etishda quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatadilar: a) tayyorgarlik; b) tashkiliy; v) o‘yin harakatlari; g) yakuniy. Bu bosqichlar o‘z xususiyatlari, o‘yinga sarflangan vaqt, bolalarning mustaqilligi va tarbiyachi faoliyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Bu bosqichlarni metodik jihatdan quyidagicha ta‘minlash maqsadga muvofiq:

Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqich uchun vaqt ko‘proq ajratiladi. An‘anaviy darsdan ko‘ra didaktik o‘yin tashkil etish murakkabroq jarayondir. Bu bosqichda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘yin qoidasini ishlab chiqish, bolalarga ana shu qoidani o‘rgatish, o‘yinning maqsadi va vazifalarini tushuntirishdan iboratdir.

O‘yinlarga tayyorgarlik bosqichida quyidagi masalalar hal etiladi:

1) o‘yinning maqsadini belgilash, ya‘ni o‘yin orqali bolalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan so‘zlar va ko‘nikmalar hajmi aniqlanadi;

2) quyidagi talablarga javob beradigan vaziyat yaratiladi;

a) o‘yinning bolalarning tayyorgarlik darajasi, yosh xususiyatlari hamda o‘quv ishlaridagi aniq muammolarga mos bo‘lishi;

b) o‘yin ko‘rinishlarini aniq belgilash, ya‘ni o‘yin tarkibiga kiruvchi holatlarni ayrim qismlarga ajratish;

3) o‘yin qoidasini ishlab chiqish, har bir ishtirokchiga alohida- alohida vazifalar belgilash. Tasodifiy holatlar sodir bo‘lganda nimalar qilish kerakligi, o‘yinning boshlanishi va tugatilishi, harakatlar soni ko‘zda tutiladi;

4) o‘yinning tafsilotini yozish. Bunda o‘yinlar uchun boshqaruvchi va har bir ishtirokchining harakatlari tasvirlangan maxsus ko‘rsatma tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqich – o‘yinni tashkil etish. Bunda, avvalo, o‘rganilayotgan mavzuga oid o‘yinning boshlanishi haqida bolalarga xabar qilish; o‘yin tayyorlash va o‘tkazish uchun boshqaruvchi tanlash, saylash ishlari amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich – o‘yinni o‘tkazish. O‘yinni o‘tkazish uslubi qat’iy belgilanmaydi. Bolalarga erkinlik beriladi va ularning o‘yindagi ijodkorligi rag‘batlantirib boriladi.

To‘rtinchi bosqich – o‘yin natijalarini tahlil qilish. O‘yindagi hal qiluvchi mavqega ega bo‘lgan bu bosqichda bolalarning o‘yin jarayonida o‘zlashtirgan bilimlari tartibga solinadi.

Undan tashqari quyidagi fikrlarni ham tahlil qilish mumkin. O‘yinning cho‘zilishi va mazmuni o‘zgarishi bilan o‘yinchogning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o‘zgarib boradi va x.k.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy o‘yinning rivojlanib borishi. Uch yoshdagi bolalarning o‘yinlari yangi tus oladi:masalan, bola mashina yasab uni boshqaradi. Kattalar undan sen kimsan?- deb so‘rasa, "Haydovchiman" deb javob beradi. Yoki qo‘g‘irchog‘qa ovqat pishirayapti. "Sen kimsan?"- degan savolga "Men oshpazman" deb javob beradi.

O‘yin mavzusi o‘zgarishi bilan o‘yinda qatnashuvchilarning ham o‘zaro munosabatlari o‘zgarib boradi. Kichkina bolalarning har biri o‘z xolicha o‘ynasa, keyinchalik 2-3 qishi bo‘lib o‘ynay boshlaydi. O‘rta maktabgacha yoshga kelganda o‘ynovchilar soni ko‘payib, o‘rtoqlik munosabatlari tarkib topa boshlaydi, bunday munosabatlar o‘yinga mavzu mazmun tanlashda, rollar va o‘yinchoqlarni taqsimlashda yuzaga keladi.

O‘yinning tuzilishi va mazmuni rivojlanib borishi bilan o‘yinchoqning roli va unga talab ham o‘zgarib boradi. Kichkina bolalar o‘yini ko‘pincha o‘yinchoq belgi laydi. Bitta o‘yi nchoq bir nechta vazifani bajarishi mumkin. O‘rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin to‘g‘risidagi fikr avval tug‘iladi. Keyin o‘ynay boshlaydi. O‘yinchoq o‘yin mazmuniga qarab tanlanadi.

Bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari o‘zlarining harakatidir. Masalan, bola ikki oyog‘ida sakrab quyonchaga taqlid qiladi.

Bolalarning ko‘p harakatlari qurish, yasash bilan bog‘liq bo‘ladi, ular soatlab parovoz, paroxod, elektrovoz quradilar, ularni o‘ziga o‘xshatishga urinadilar. Ko‘pincha qurish o‘yinning boshlanishi bo‘lib xizmat qiladi.

Taqlid vositasiga o'yinchoq ham kiradi. O'yinchoq bola harakatini to'ldiradi, o'ylagan obrazi va fikrini amalga oshirishga yordam beradi.

Kiyimlar va ularining qismlari ham bolaning olgan rolini yaxshiroq bajarishga va uni yanada aniqroq ijro etishga imkon tug'diradi. Bolalar o'yin jarayonida ba'zi bir narsalarni xoxlagan narsalari nomi bilan atab ham xuddi o'sha xoxlagan narsalarini faraz qilib juda yaxshi o'ynaydilar, masalan, taomni "konfet", qumni "shakar", stulni "mashina" deb atashlari mumkin.

So'z yordamida bolalar qanday o'yin o'ynashlarini kelishib oladilar. So'z yordamida bir-biri bilan muomalada bo'lib, o'z fikrlarini izhor etishadi. So'z har xii taassurotlarni ifodalash imkonini beradi. Bolalar bu hamma vositalardan ko'pincha bir vaqtda foydalanadilar

Aks etti ruvchi vosita qanchalik ko'p bo'lsa. o'yin mazmuni shunchalik bayroq bo'ladi hamda tevarak atrofdagi voqealardan taassurot shunchalik to'laroq aks ettiriladi.

O'yin mazmunining rivojlanib borishi bilan murakkab jarayon bo'lgan bolalar jamoasi ham shakllana boshlaydi. O'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lgani uchun uning syujetini bolalar o'zlari o'ylab topishadi va o'zlari tashqil etishadi. O'yinda bolalar o'zlarining kichkina jamiyatning a'zosi deb hisoblashadi, o'zaro kelishi b harakat qilishga o'rganishadi.

Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o'ynayotgan bolalar jamoasiga kira ol ishi, u erda o'z o'rnini topa olishi va shu jamoada o'rnashib olishi lozim.

Tarbiyachi ilk yoshli bolalarda ularning narsalar bilan o'ynay olishi , diqqatini shunga to'play olish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bu boshqa bolalar bilan yonmayon tinch o'ynay olish malakasini shakllanishiga yordam beradi. Bolalar birgalikda o'ynashga o'tganlarida bir-birlari bilan ma'lum munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi. Xudda mana shu munosabat jamoatchilikni shakllanti radi. Bunga tarbiyachi bolalarni kelishib o'ynashga o'rgatish orqali erishadi.

Sahnalashtirilgan o'yinlar ijodiy o'yi nlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o'yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, hayol

qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg'unligi, bolalarning mustaqillik va o'z- o'zini uyushtira olish jihati xos. Sahnalashtirilgan o'yin badiiy asar asosida qo'riladi: o'yin syujeti, rolar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko'ra belgilanadi.

Sahnalashtirilgan o'yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga o'rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so'zlab berishga hohish ham qiziqish ham bo'lmaydi, ammo unga o'yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi.

Bunday o'yinda bola o'zini o'sha asardagi qahramon o'rnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so'zlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo'lgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o'yinda badiiy asarning g'oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi.

Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo'lib, bola unga kirishib ketgan taqdirdagina asardagi obraz va harakatlar to'g'ri aks ettiriladi. Shuning uchun u yoki bu badiiy asar bo'yicha sahnalashtirilgan o'yin o'tkazishdan oldin tarbiyachi asarning mazmunini aks ettirishga yordam beradigan tayyorgarlik ishini o'tkazishi kerak.

Bu ish oldindan bir qator mashg'ulot va o'yinlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Didaktik o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, unga yordam beradi. Didaktik o'yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodidir.

Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo'rqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Didaktik o'yinni amalga oshirishda har doim g'oyaviylik printsipiga asoslanish kerak. Didaktik o'yin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim.

Didaktik o'yinlar bolalarni birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtirish olishi, bir-biriga ko'rsatish va o'rtog'ining muvaffaqiyatidan xursand bo'lishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. O'yinlar shaxsning sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi.

Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.

Bunday o'yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o'yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Katta guruh bolalari uchun «nimalar va qanday ishlarni bilishadi?», «Dehqonlar nimalarni etishtiradi?», «Kim ko'proq narsalarning nomini ayta oladi?» va boshqa o'yinlarni ko'rsatish mumkin.

Demak, didaktik o'yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo'llay olishga o'rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarni ta'limga soladi. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o'zlashtiradilar. Didaktik o'yin bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yining muhim tomoni - uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinni boshlashga sababchi bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Muhamedov G'.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. Xalq so'zi. [xs.uz/uzkr/post/pedagogik-talim-innovatsion-klasteri-ehtiyozh-zarurat-natizha](http://xs.uz/uzkr/post/pedagogik-talim-innovatsion-klasteri-ehtiyozh-zarurat-natizha)
2. Arakchaa P.K. Istoki ekologicheskogo vospitaniya Tekst. : ucheb.-metod, posobie / P. K. Arakchaa. Kizil : Tuvin. kn. izd-vo, 2004. - 264 s.
3. Sterkina, R. B. Kachestvo doshkolnogo obrazovaniya i osnovnye tendensii Tekst. / R. B. Sterkina // Doshkolnoe vospitanie. 1996. – №6.- S. 9-12.
4. Sterkina, R. B. Rekomendatsii po organizatsii raboty doshkolnykh uchrejeniy Tekst. / R. B. Sterkina, O. Knyazeva // Doshkolnoe vospitanie. 1992. - № 2. - S. 46-51.
5. Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.
6. Юсупов О.Н. Ўзбек адабиётининг инглиз тилидаги таржималарининг лингвокогнитив тадқиқи. Сўз санъати халқаро журнали. 3 сон, 3 жилд. Б.102-105.
7. Юсупов О.Н. О'zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборатлари. 3 жилд, 19 сон, - ТДПУ, 2019. Б.146-150.
8. Юсупов О.Н. Анализ проблемы стиля в художественном переводе. The Way of Science, 94. 2014.
9. Юсупов О.Н. Бадиий матннинг лингвокогнитив хусусиятлари. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборатлари, 1 (10), 35 - 37. 2017.
10. Юсупов О.Н. Специфика художественного перевода. Наука и Мир 2 (3), 170 - 172. 2014.
11. О.Н. Юсупов. Pride of Uzbek nation. The Way of Science 9 (31), 80-81
12. ОН Юсупов. Чет тили дарсларида таржима муқобиллигини яратиш асосида тилни ривожлантириш. Тил ва адабиёт таълими 2 (2), 96-99

13. О.Н. Юсупов. Стилистика. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 320 стр.
14. О.Н. Юсупов. Лексикология. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 344 стр.
15. O.Yusupov, I.Mirzaeva, A.Mukhamedaminov, D.Shigabutdinova, S.Nazarov, U.Muradov, T.Toshpulatov, Sh.Fayziev, Sh.Fayziev. Phraseological Units with Colour Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People. LINGUISTICA ANTVERPIENSIA, 2021. P. 719-731
16. Yusupov O.N. Subtleties Of Literary Translation. İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online 4 (4), 1987-1991